

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#71 (16524)
2022-yil, 8-oktabr
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

Imkoniyat
3-bet

Wikipediya: maqolalar
178 025 taga yetdi

Fototanqid
5-bet

O'zbekistonda
qonunlar ishlaydimi?

Mitti intervyu
6-bet

Eng zo'r
3 savol



Foto: Behruz RAJABOV

“QIZIM, GRANTGA KIRSANG, O‘QIYSAN”...

Ikkinchi o'rinda to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etilgan qiz otasi bilan poytaxtga keldi. Yotoqxonadan joy izladi, rahbariyatga qayta-qayta kirib chiqdi. Joy yo'q, ijarada turishga esa qo'shimcha pul kerak.


batafsil
7-betda

INKLYUZIV TA'LIM – KASB VA BILIM

Yoshlar ishlari agentligi Andijon viloyati boshqarmasi huzuridagi Inklyuziv ta'lim markazida nogiron va ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib kompyuter savodxonligi, ingliz tili, ona tili va adabiyot, rassomchilik-chizmachilik, qo'l mehnati, robototexnika, tikuvchilik, jurnalistika hamda psixologiya yo'nalishlari bo'yicha dars berilmoqda.



Xurshida O'RINBOYEVA,
Yoshlar ishlari agentligi
Andijon viloyati boshqarmasining
inklyuziv ta'lim markazi kasbiy ta'lim
yo'nalishi koordinatori



Ular hunar egallashi va oila byudjetiga naf keltirishi, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun monomarkazlar bilan hamkorlikda kasb-hunarga o'qitilmoqda. Bundan tashqari, "Inklyuziv O'zbekiston" sayohatlari tashkil qililib, 50 nafar nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar yurtimizning tarixiy va diqqatga sazovor joylariga sayohatga yuborildi.

Inklyuziv ta'lim markazining faol o'quvchisi Muhammadali Abdullayev ham markaz tashkil etilganidan juda xursand. Bu yerda u malakali o'qituvchi va koordinatorlardan turli fanlar hamda kasblar bo'yicha ta'lim olmoqda. Muhammadalining aytishicha, markaz uning kelajakda yurtimiz rivojiga hissa qo'sha oladigan yoshlar qatorida bo'lishida narvon vazifasini o'taydi.

– Turli seminar-treninglar va o'quv mashg'ulotlari ularning miya faoliyatiga ham yaxshi ta'sir ko'rsatib, yanada rivojlanishi uchun ko'mak beradi. Markazimizda 35 nafar daun sindromi, autizm kasalligi bilan davolanib kelayotgan, miya faoliyati va tayanch harakat tizimida nuqsoni bor, ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar tahsil olmoqda. Ular bilan gaplashganimizda o'zlarining alohida dunyosi borligini, katta-katta orzu-umidlar bilan yashashini, o'ziga ishonchi naqadar yuqori ekanini ko'rib, hayratda qolamiz. Nogiron, lekin imkoniyatlari cheksiz bu yoshlar boshqalarga namuna va o'rnak bo'la oladi, – deydi ta'lim yo'nalishi koordinatori Sarvinoz Odiljonova.

Kasb-hunarga o'rgatish borasida gap ketar ekan, Mumtoza Ibrohimova – gul yasash va dizaynerlik yo'nalishida, Otabek Rasulov

MARKAZDA 35 NAFAR DAUN SINDROMI, AUTIZM KASALLIGI BILAN DAVOLANIB KELAYOTGAN, MIYA FAOLIYATI VA TAYANCH HARAKAT TIZIMIDA NUQSONI BOR, KO'RISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TAHSIL OLMOQDA.




– sartaroshlik, Muhammadyusuf Ikromov – xattotlik, aka-uka Farrux va Muhammadali Abdullayevlar, Jaloliddin hamda Sarvarbek Salohiddinovlar esa "Street workout" sport turi bo'yicha alohida shug'ullanib, yuqori natijalarni qayd etmoqda.

Mumtoza Ibrohimova va Otabek Rasulov bir oyda o'zlarining shaxsiy chiqimlaridan tashqari 500-600 ming so'm daromad topyapti. Bularning barchasi Inklyuziv ta'lim markazining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib yo'lga qo'yildi.

Homiylik tadbirlari ham tashkil etilib, ularning madaniy hordiq chiqarishi ta'minlanmoqda. Xususan, Andijon shahrining "Ice Rink" muz saroyiga va "Yoshlar eko bog'i"ga sayohatlar uyushtirilib, konsert dasturlari namoyish etildi. So'lim "Bog'i shamol" hududida esa malakali va tajribali psixologlar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi.

IMKONIYAT

HUNARMANDLAR UCHUN SOLIQ IMTIYOZLARI



Prezidentimizning 2019-yil 28-noyabr-dagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Milliy katalog va reyestrda kiritilgan hunarmandlar uchun yagona soliq to'lov stavkasi 2 foiz miqdorida to'lanishi belgilangan.

Unga ko'ra, 2020-yil yanvardan boshlab 2023-yil 1-yanvargacha qadar Milliy katalog va reyestrda kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum 100 million so'mdan oshgan, biroq 1 milliard so'mdan ko'p bo'lmagan miqdori uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yagona soliq to'lov stavkasi 2 foiz miqdorida to'lanadi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Milliy katalogga quyidagi hunarmandlar kengash qarori asosida kiritiladi:

- nufuzli xalqaro ko'rgazma, ko'rik-tanlov kabi tadbirlarda g'olib yoki laureat sifatida e'tirof etilganlar;
 - tegishli sohada san'at va fan arboblari hamda akademiklarning tavsiyasiga egalalar;
 - "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi" faxriy unvoni sohiblari.
- Reyestrda Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan "Hunarmand" uyushmasining quyidagi a'zolari kiritiladi:
- turistlik marshrutdagi manzil bo'yicha o'z ustaxonasida yoki ijara asosida faoliyat yurituvchilar;
 - o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar galereyalari, hunarmandchilik mahsulotlari do'konlari, mahalliy va xorijiy savdo uylariga shartnoma asosida namoyish va sotish uchun qo'yayotganlar;
 - Milliy katalogga kiritilganlar;
 - "Hunarmand" uyushmasining badiiy kengashi tomonidan tavsiya etilganlar.

XORIJDAGI TALABALAR! SHOSHILING, 2 KUN QOLDI

Kuni kecha xorijda ta'lim olayotgan talabalarning takliflari inobatga olingan holda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi tashkil etgan "Iste'dodli vatandoshlar" tanloviga hujjatlarni qabul qilish muddati 2022-yil 10-oktabrgacha uzaytirilishi ma'lum qilindi. Shu o'rinda bu stipendiya haqida batafsilroq ma'lumot berishni lozim topdik.

Shahruza SATTOROVA,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

Foto: Behruz RAJABOV



QANDAY HUJJATLAR KERAK?

Stipendiyaga nomzodlar ariza, portfolio (mubosaaqalar, olimpiadalar, tanlovlar sertifikatlari, oliy ta'lim muassasasidan tavsiyanomalar, o'quv yili davomida to'plagan ballari (reyting daftar-chasidan nusxa, yillik bahosi – 75 foizdan kam bo'lmasligi lozim), pasport nusxasini taqdim etadi. Barcha talablarga javob beradigan ishtirokchilar "Iste'dodli vatandoshlar" stipendiya-tanloviga ro'yxatdan o'tgani haqida xabardor qilinadi.

Ikkinchi bosqichda nomzodlar bilan ta'lim olayotgan mutaxassisligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlashga qaratilgan (o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida) suhbat o'tkaziladi. Zarur hollarda tanlovda ishtirok etuvchi nomzodning ta'lim olayotgan mutaxassisligi bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun mustaqil ekspert yoki mutaxassis jalb qilinishi mumkin. Nomzodlar bilan suhbat tanlovning kengash komissiyasi tomonidan onlayn videomuloqot shaklida tashkil etiladi.

Tanlov kengash komissiyasi bakalavriat, magistratura ta'lim bosqichidagi 35 nafar g'oliblarni tavsiya etiladigan mamlakatlar, ta'lim va boshqa muassasalarni ko'rsatgan holda tasdiqlaydi. So'ngra ularga 1 million 425 ming so'm miqdorida 4 oy davomida stipendiya to'lab boriladi.

Xorijda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik yoshlarga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining "Iste'dodli vatandoshlar" stipendiya shakllantirilgan. Bu stipendiya xorijda ta'lim olayotgan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, xorijiy davlatlarning akkreditatsiyalangan davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yoki magistratura bosqichining kunduzgi ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil oladigan o'zbekistonlik iqtidorli talaba-yoshlarga tanlov asosida to'lab beriladi.

SARALASH QANDAY BO'LADI?

"Iste'dodli vatandoshlar" stipendiya ochiq saralash tanlovi har yili iyul-avgust oylarida o'tkaziladi. Tanlov ikki bosqichda bo'lib o'tadi.

Birinchi bosqich – "Iste'dodli vatandoshlar" stipendiyasiga nomzod talabgorlardan ariza-so'rovnoma qabul qilish. Bu bosqichda xorijiy davlatlarda ta'lim olayotgan o'zbekistonlik yoshlar O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining rasmiy veb-sayti, telegram, instagram, facebook kanallarida e'lon qilinadigan ariza-so'rovnoma to'ldirishi lozim.

Ikkinchi bosqich – ariza-so'rovnoma to'ldirib yuborgan talabgorlar bilan nizom asosida belgilangan suhbat-imtihon o'tkazish.

WIKIPEDIYA: MAQOLALAR 178 025 TAGA YETDI

Joriy yilning may oyida Yoshlar ishlari agentligi "WikiStipendiya" marafoniga start bergan edi. O'sha paytda Wikipediya'dagi o'zbekcha maqolalar 140 348 tani tashkil etgan bo'lsa, hozir ular soni 178 mingtadan oshdi.



Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida o'tkazilgan anjumanda loyiha natijalari sarhisobi, yangi yo'nalishlar taqdimoti va oraliq tanlovlarning taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev, Wikipediya administratorlari, jurnalist, blogerlar va talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev loyiha-ni maqsadi, ahamiyati haqida to'xtalib, bunday loyihalarni har doim qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ta'kidladi.

Yoshlar ishlari agentligi direktorining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi Mehrnoz Abbosova "WikiStipendiya" loyihasining natijalari haqida axborot berar ekan, tahrirlar soni 2 559 272 tadan 2 995 023 taga, faol foydalanuvchilar 388 nafardan 803 nafaqga yetganini ma'lum qildi.

"WikiStipendiya" marafoni doirasida "WikiAyollar", "WikiAudio" kabi ostloyihalar hamda "Dolzab mavzu bo'yicha eng yaxshi maqola", "Ayollar, ularning huquqlari va jamiyatdagi o'rni mavzusida eng yaxshi maqola", "Sport mavzusida eng yaxshi maqola", "Marafon yulduzi" kabi oraliq tanlovlar ham o'tkazildi.

Taqdimotdan so'ng ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi. So'ng taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. "WikiStipendiya"



marafoni doirasida o'tkazilgan tanlovlarning 8 nafar g'olibi noutbuk hamda diplomlar bilan taqdirlandi.

Tadbir yakunida "WikiTa'lim", "WikiKlub" kabi yangi loyihalar va ularning maqsadi haqida batafsil ma'lumot berildi. Unga ko'ra, "WikiTa'lim" loyihasida talabalarga mustaqil ish, referatlar va boshqa vazifalar o'rniga Wikipediya

maqola joylash vazifa qilib beriladi. "WikiKlub" loyihasida esa "Wikino", "WikiTob", "WikiMehmon", "Wiki-Mashg'ulot" kabi kichik dasturlar yo'lga qo'yiladi.

Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Foto: Behruz RAJABOV

MAHALLAMIZDA BIRORTA ISHSIZ YOSH QOLMAYDI

Rustam ORIFOV,
Uychi tumanidagi
"Bo'ston" mahallasi yoshlar yetakchisi

Mahalla yoshlar yetakchisi lavozimiga tayinlanganimda "menga birlashtirilgan hududda birorta ham jinoyat bo'lmaydi" deb o'zimga so'z bergandim. Sababi mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilgunga qadar mahallamiz yoshlarining 6 nafari jinoyat sodir etgan bo'lib, bu eng og'riqli nuqtamiz edi.



yo'lga qo'yd. Shu bilan mahallaning 4 nafar yoshini ham ishli qildi. Hozir kuniga 400-500 donagacha g'isht ishlab chiqaryapti. G'ishtning bir donasini 2,5 ming so'mdan sotayotganini hisobga olsak, kuniga 1-1,5 million so'm atrofida daromad olmoqda.

Yana ikki nafar yoshimizga 12 million so'mdan imtiyozli kredit ajratib berdik. Ular ikkitadan nasldor qoramol olib, chorvachilik bilan shug'ullanmoqda.

9 nafar mahallamiz qizlari esa 6 million so'mdan imtiyozli kredit olib, zamonaviy tikuv mashinalari oldi. Ularga mahalla binosidan joy ajratib berilgach birlashtirib tikuv sexi ochishdi. Hozirgi kunda bu qizlar bozordan ulgurji buyurtmalar olmoqda. Endi bu sex faoliyati rivojlansa, yana mahalladagi bir nechta qizlarning tikuv mashinasi olishiga ko'maklashib, tikuv sexi faoliyatini kengaytirishni o'ylab turibmiz.

Il guruh nogirani **Sharifa Ilhomjonovani** "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, unga 10 yil muddatga foydalanish uchun 10 sotix yer ajratdik. Sharifa ekin maydoniga kungaboqar o'simligini ekib, 2 million so'mlik hosil oldi. Shuningdek, "Temir daftar"ga ro'yxatga olingan Shohsanam Ergashevaga ham 10 sotix yer ajratib berdik. U o'z yeriga makkajo'xori ekib, 3 million so'm daromad oldi.

Shu tariqa mahallamizda ishsizlar soni kamayib, kichik tadbirkorlar safi kengaymoqda. Yil so'ngigacha qadar mahallamizda birorta ham ishsiz yoshlar qolmasa, kichik tadbirkorlar o'z faoliyatini kengaytirib, daromadlari ko'paysa, o'z maqsadimga yetgan bo'laman.

Faoliyatimni boshlashim bilan har bir ko'chadan eng intizomli, o'z so'zini o'tkaza oladigan yigitlarni saralab, "Qalqon" guruhini tashkil etdim. Ularga "qay-si ko'chada birorta jinoyat sodir bo'lmasa, urush-janjallarning oldi olinsa, o'sha hududga tayinlangan "Qalqon" guruhi a'zolarini safarbarlik harbiy xizmatiga yuborib, shartnoma pulini to'lash uchun tavsiya etaman", deb va'da berdim. O'ylagan rejam ish berdi. Hozirgacha mahallamizda birorta ham jinoyat sodir bo'lmadi.

Nafaqat jinoyat, balki kichik urush-janjallar haqida ham eshitmayapmiz. Qolaversa, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun tadbirkorlar ko'magida mahallamiz binosi yonida sport maydoni qurdik. Hozirda sport maydonchasi yoshlar bilan gavjum.

Mahallamizda 1134 nafar yoshlar bo'lib, ularning 87 nafari yil boshida ishsiz sifatida ro'yxatga olingan edi. Hozirgi kunga kelib ularning 26 nafari imtiyozli kredit, subsidiya asosida ish qurullari ajratish, 12 nafari "Kichik sanoat" zonasiga ishga joylashtirish, 11 nafari esa dehqonchilik qilish uchun yer ajratish orqali ish bilan band etildi.

Shunday yordam bilan tadbirkorga aylangan yoshlardan biri **Islomjon Mahkamovdir**. U temirchilik bilan shug'ullanishga qiziqqani bois mahallamizdagi usta temirchiga shogird tushgan. Unga mahallada hokim yordamchisi bilan birga 33 million so'mlik imtiyozli kredit ajratib berdik. Mablagn'i qo'lga olgach zarur mahsulotlarni xarid qildi. Hozir hovli uchun darvoza, temir to'siq, deraza uchun panjaralar yasab, yaxshi daromad topyapti. Mahalladagi ikki nafar yoshni ham ishli qildi.

Muhammadali Hamdamov dehqonchilik qilish niyatini bildirgach unga 8,5 million so'm imtiyozli kredit ajratdik. Bu pulga o'z hovlisidan 2 sotixli issiqxonaga qurib, kuzgi pomidor va bodring ekdi. Hosilni sotib, yaxshigina daromad olyapti.

Sherzod Rahimov esa 25 million so'm imtiyozli kredit olib, beton g'isht ishlab chiqarishni



“
MAHALLAMIZDAGI
1134 NAFAR YOSHNING
87 NAFARI YIL BOSHIDA ISHSIZ
SIFATIDA RO'YXATGA
OLINGAN EDI.



JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI



O'ZA muxolifi
Nasiba ZIYODULLAYEVA yozib oldi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish vazifalari belgilangan.

Undagi 97-maqсадda Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar bilan muzokaralar, o'zbekistonlik mutaxassislarining Jahon savdo tashkiloti va ko'p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qiladi?

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari Hayotbek Saydaliyev ushbu savolga quyidagicha javob berdi:

– 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 97-maqсadidan aynan shu masalaga bag'ishlan-

gan. Unda O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish ustuvor masala tarzda ko'rsatilgan.

Shu talablardan kelib chiqib ilmiy muassasamiz ekspertlari O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lishi asosiy makroiqtisodiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatishini baholadi.

Tahlillarga ahamiyat qaratilgan bo'lsak, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada yaxshilash, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, tashqi raqobatbardoshlikni kuchaytirish, shu bilan birga, bozor munosabatlariga o'tish jarayonini tezlashtirish uchun zamin

yaratishi mumkin. Ammo tariflarining pasaytirilishi tufayli JSTga a'zo bo'lish mahalliy ishlab chiqarishning zaif tarmoqlariga salbiy ta'sir qilishi ham ehtimoldan yiroq emas.

Tadqiqotda JSTga a'zo bo'lishning asosiy sharti sifatida O'zbekistondagi tariflar darajasini JSTga a'zo davlat – Qozog'iston darajasiga tushirish ko'zda tutilgan.

Bu jarayonda o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, birinchidan, tariflar va ichki narxlarning pasayishi tufayli eksport jozibadorligi oshishi hisobiga eksport hajmi 0,06 foizga ortishi va ichki tovarlar taklifi 0,03 foizga kamayishi mumkin. Ikkinchidan, import hajmi 0,06 foizga ortadi va mahalliy tovarlarga bo'lgan talab 0,03 foizga kamayadi. Uchinchidan, davlat byudjeti daromadlarining qisqarishi hisobiga jami jamg'armalar 0,35 foizga kamayadi. To'rtinchidan, jamg'armalar hajmining kamayishi hisobiga investitsiyalar darajasi 0,16 foizga pasayishi kuzatiladi. Beshinchidan esa ichki narxlarning pasayishi oqibatida iste'mol hajmi 0,11 foizga ortadi.

Modelning dastlabki natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchi bosqichda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi va buning natijasida tariflarning pasaytirilishi mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talabning ma'lum darajada pasayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy kompaniyalar faoliyati samaradorligini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Aks holda xorijiy kompaniyalar bilan narx raqobatiga dosh bera olmay-

digan samarasiz korxonalar bozordan chiqib ketadi.

Yangi sharoitga muammosiz o'tishni ta'minlash va O'zbekistonda milliy korxonalarini tashqi raqobat sharoitiga bosqichma-bosqich tayyorlash uchun yangi muhitni yaratish tavsiya etiladi.

Xorijiy kompaniyalarining O'zbekiston bozoriga kirishi bilan tariflarning bosqichma-bosqich pasaytirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, texnologik va kadrlar bazasini takomillashtirish orqali sifatini oshirish, korxonalarining narx siyosatini qayta ko'rib chiqishi hamda iste'molchilarning didi va nimani ma'qul ko'rishini tizimli ravishda o'rganish uchun o'ziga xos ishora bo'ladi.

Bunda yirik kompaniyalarining JSTga kirish shartlariga tayyorlik indeksini yillik baholash amaliyotini joriy etish samarali mexanizm bo'lishi mumkin. Demak, tadqiqotning ushbu bosqichida modelning dastlabki natijalari O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi, umuman olganda, qanday samara berishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi uzoq davom etayotgan jarayon hisoblanadi. Bunda Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo'lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish, eksportni qo'llab-quvvatlash va subsidiyalash choralarini ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni ijrosini ta'minlash talab etiladi.

Fototanqid

O'ZBEKISTONDA QONUNLAR ISHLAYDIMI?

YOXUD TOSHKENT KO'CHALARIDAGI REKLAMA YOZUVLARIGA NAZAR



Poytaxt ko'chalari bo'ylab qay tomonga qarasangiz ham, ajnabiy so'zlar, brendlar-u reklama yozuvlariga ko'zingiz tushadi. Holbuki, yangi tahrirdagi "Reklama to'g'risida"gi qonun kuchga kirganiga bir oydan oshdi.

Markaziy ko'chalarda yursangiz, O'zbekistondaligingizga shubhalanasiz! Eng ko'p murojaat qilinadigan xizmatlarning deyarli barchasi o'zga tillarda reklama qilingan: "салон красоты", "ксерокопия", "обувь", "одежда", "burger", "coffee"... Nomiga bo'lsa ham bir dona o'zbekcha so'z ishlatilmagan, yarim-yalang'och qizlarning ehtirosli suratlarini yopishtirilgan kiyim do'konlari-yu mushakdor yigit-qizlar tasvirlangan sport zallarining reklama bannerlarini ko'rgach, "nega mas'ul tashkilotlar bunga e'tibor qaratmayapti?", "qonun ijrosi qachon ta'minlanadi?" degan savollar paydo bo'ladi.

2022-yil 7-iyunda qabul qilingan, 7-sentabrdan kuchga kirgan yangi tahrirdagi "Reklama to'g'risida"gi qonunga ko'ra, reklama davlat tilida berilishi shart. Zarurat bo'lganda boshqa tillarda tarjimai keltirilishi mumkin, biroq uning shrifti davlat tilidagi asosiy matndan kichikroq bo'lishi, mazmunini to'g'ri ifodalashi hamda umumiy reklama maydonining ko'pi bilan 40 foizini egallashi mumkin. Ammo ayni paytdagi holat qonun talablariga butunlay zid.

Shahribonu RAHMATOVA.

Foto Behruz RAJABOV

ENG ZO'R 3 SAVOL

1.

YOSHLARNING TELEFONGA BOG'LANIB QOLAYOTGANI, IJTIMOY TARMOQLARGA MUKKASIDAN KETAYOTGANIGA NIMA SABAB BO'LMOQDA?

– Avvalo, ota-ona farzandiga telefonidan to'g'ri foydalanish kerakligini tushuntirishi va ko'rsatib bera olishi kerak. Masalan, men qizimga faqat til o'rganishi uchun telefon olib berganman. Qizim tilni o'quv markazlariga qatnab emas, telefondagi ilova va onlayn darslar orqali o'rgandi. Yoshlar o'zini qiziqtirgan mavzu bo'yicha internet orqali yangi bilimlar olishi mumkinligini his qilishi zarur.

Eng muhim jihati – telefondan foydalanish uchun ma'lum vaqtni belgilab qo'yish kerak. Bunda bola bilan kelishib olish zarur, faqat taqtiqlab qo'yish orqali bolada telefonga qiziqishni yanada oshirib yuborishingiz mumkin. Agar to'g'ri yo'nalish bermay, taqtiq qo'yaversangiz, bu ishni yashirincha qilgisi keladi.

Besh tashabbus olimpiadasi

SEKTOR BOSQICHIDA G'OLIBLAR SARALANMOQDA

Qumqo'rg'on tumanida yengil atletika bo'yicha "Besh tashabbus olimpiadasi"ning sektor bosqichi bo'lib o'tdi. Bahslarda ming nafarga yaqin sportchi yoshlar 11-15, 16-21, 22-26, 27-30 yosh toifalarida o'zaro kuch sinashdi.

Musobaqa g'oliblariga diplom, vaucher va esdalik sovg'alari topshirildi.



2.

OTA-ONA VA O'SMIR O'RTASIDA TUSHUNMOVCHILIK YUZAGA KELGANDA NIMA QILISH KERAK?

– O'smirlikning murakkab davri: bolangiz endi kichkina emas, lekin hali katta ham emas. U mustaqil bo'lishga va o'zini ko'rsatib qo'yishga qiziqadi. Har jihatdan d'lo bo'lish istagidagi yigit yoki qizning ruhiyatiga birgina taqtiq yoki o'rinsh tanbeh bilan jiddiy zarba bergan bo'lasiz. Bunday vaziyatda eng to'g'ri yechim do'stona munosabatni yo'lga qo'yishdir! Shunday vaziyatda ota-onalar farzandiga "Sening qo'lingdan keladi!" yoki "Senga ishonamiz!" deb, tez-tez takrorlab turish orqali ularda o'ziga ishonchni oshiradi, o'sish davridan muvaffaqiyatli o'tishiga ko'maklashadi.

3.

YIGIT-QIZLARNI MAKTABNI BITIRGAN YILYOQ TURMUSHGA UZATISH YOKI UYLANTIRISH QANDAY OQIBATARGA OLIB KELADI?

– 17-19 yoshdagi yigit yoki qiz, sodda qilib aytganda, hali go'dak! Biror kasb-hunarning boshini tutib ulgurmagani, oilada er-xotinning o'rnini, farzandga tarbiya berish tushunchasi umuman shakllanmagan bo'ladi. Mustaqil pul topish, uni sarflash yoki iqtisod qilishni bilmaydigan yoshda baxtli oila haqidagi tasavvurlar ham butunlay boshqacha bo'ladi.

"Yoshlar ovozi" muxbiri
Ziyoda RAHIMBOYEVA suhbatlashdi.

- TELEFONGA QARAMLIK
- O'TISH DAVRI
- ERTA NIKOH

Sevimli gazetangizda "Eng zo'r 3 savol" loyihasi asosida mitti intervyular tashkil etilmoqda. Bunda siz turli soha mutaxassislari bilan qisqa va foydali, eng muhimi, qiziqarli intervyularni o'qib borasiz! Loyihamizning ilk mehmoni – tajribali psixolog Shahnoza Sangilova.

Psixologga yoshlar va ota-onalarni eng ko'p o'ylantiradigan savollar bilan murojaat qildik:

Masalan, turmushga chiqa-yotgan yosh qizning tasavvurida to'y – shahzodasini topish va baxt marosimi, er esa hamma orzularini amalga oshirib beradigan odam. Aslida uy ishlari, qaynona xizmati, farzand parvarishi bilan shug'ullanish mas'uliyatini bo'yniga olgan yosh kelinda ruhiy o'zgarishlar kechishi mumkin. Chunki hali o'zidagi bolalik xohishlari, o'smirlik davri erkinliklari to'liq qondirilmay turib ona bo'ldi, oila bekasi bo'lishdek katta mas'uliyatni bo'yniga oldi.

O'zbek oilalarida kelinga katta vazifalar qo'yiladi, endi maktabni bitirgan qizchada bularni birdek uddalash, qaynona, er yoki boshqa qarindoshlar bilan muomala qilish uchun yetarli bilim, dunyoqarash shakllanmagan hali. Ajrim, nogiron farzandlar tug'ilishiga asosiy sabablardan biri erta turmush qurishdir!

Aziz ota-onalar! Ilmdan boshqa najot yo'q! Ayniqsa, ayol-qizlar ta'limiga alohida e'tibor qarating. Ilm ularning baxt kalitidir.

UYUSHMAGAN YOSHLAR BIRLASHDI



Paxtaobod tumanidagi sektorlarda voleybol musobaqasi o'tkazildi. Birinchi sektor bahslarida 24 ta mahalladan 16-21 va 22-26 yoshlar toifasidagi uyushmagan yoshlar bellashdi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, 16-21 yosh toifasida "Shomat" mahallasi, 22-26 yosh toifasida "Zokir Habibi" mahallasi yoshlari 1-o'rinni egalladi.

150 MINGDAN ORTIQ TALABGOR



Xorazm viloyatining barcha tuman va shaharlarida stritbol musobaqasining sektor bosqichlari yuqori saviyada tashkil etildi. Xususan, Xiva shahri 2-sektor hududidagi "Yangi hayot", "Lolazor" va "Qiyot" mahalla yoshlari g'oliblik uchun murosasiz bellashdilar. 5 ta yosh toifasi bo'yicha qatnashgan o'g'il bolalar va qizlarning bu sport turiga ishtiyoqi yuqoriligini natijalardan ham bilish mumkin.

– Biz mahallamiz qizlari bilan sportning stritbol turi bilan shug'ullanamiz, – deydi "Yangi hayot" mahallasidan Ullibibi Bekchanova. – Sektor bosqichida ham o'ladimiz kelib, g'olib bo'ldik. Endi navbatdagi uchrashuvlarga ham kuchli tayyorlanamiz. Jamoamizning g'alabaga ishtiyoqi juda baland.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning 2-mavsumida qatnashish uchun 150 ming nafardan ortiq xorazmlik yoshlar ro'yxatdan o'tgan. Shundan 1447 nafari stritbol yo'nalishida ishtirok etmoqda.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,

"Yoshlar ovozi" muxbiri

KONTRAKTMI yoki MASHINA?

Yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan 808 400 nafar talabani 369 ming nafari qizlardir. Demak, qizlarning oliy ta'lim olish darajasi yigitlarnikidan kam. Nima uchun?

Gulnora SHERMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti
talabasi

Aksariyat yurtdoshlarimiz buning asosiy sababini qizlarning maktabni bitirib bitirmasdan turmushga uzatilishi bilan izohlaydi. Biroq qizlarning o'zlari qancha orzu qilmasin va istamasin, talaba bo'lish baxtiga erishishga to'siq bo'layotgan boshqa sabablar ham bor.

Bugun oliy ta'limda o'qishning katta foizi to'lov-shartnoma asosida. Ko'p oilalarda shartnoma pulini to'lash uchun mablag' yetarli bo'lmaydi, ayrim oilalarda esa daromad juda kam bo'lganidan talabalikka erishgan yoshlar o'qishdan voz kechadi. Ba'zi hollarda abituriyent boquvchisini yo'qotgan bo'ladi. Shartnomada belgilangan summani to'lashga imkoniyati bo'lmagan oilada qiz bola uchun o'qimay qo'ya qolish yo'li tanlan-

di. Sababi qiz bola o'qish davrida o'g'il bola kabi og'ir mehnat qilib, "o'zini uddalay olmaydi".

O'tgan yil o'qishga qabul qilingan talaba bilan sodir bo'lgan bir holatga guvoh bo'lgan edim. Ikkinchi o'rinda to'lov-shartnoma asosida talabalikka tavsiya etilgan qiz o'qish maqsadida otasi bilan poytaxtga keldi. Yotoqxonadan joy izladi, rahbariyatga qayta-qayta kirib chiqdi. Joy yo'q, ijarada turishga esa qo'shimcha pul kerak. Qiz yig'ladi, otasi esa uni amallab ko'ndirdi, uyda yana ikkita shartnoma asosida o'qiyotgan opalari borligini eslatdi...

Alaloqibat bechora qiz qachon grantga kirsam, o'qiydigan bo'ldi. Bu vaziyat qanchalik og'irligini talabalikka qadar yillab tayyorgarlik ko'rgan yigit-qizlar yaxshi biladi.

Bundan tashqari, talaba va uning ota-onasi oldida kontrakt



puli degan muammo ham bor. Agar qiz tibbiyot oliy o'quv yurti talabasi bo'lsa, ana muammo... Bir yil uchun 13-14 million so'mlik shartnoma puli. Agar pedagogika sohasida bo'lsa-ku bir oz kamroq mablag' kerak. Ota uchun bir yillik to'lovni amallab to'lash qanchalik qiyin. U yillab to'layotgan pullariga yangi mashina olishi mumkin. Lekin u mashinani emas, farzandini o'ylaydi. Kelajakda kimlarningdir qo'liga qaram bo'lishini, kimlarga qora ishchi bo'lib xizmat qilishini istamaydi. Mening otam ham o'qishga kirganimda "Qizim, o'qisang, ertaga bironing qo'liga qarab qolmayman. Kelajakda ilming bilan qiyin ahvolga tushmayman", degan edi.

Moddiy ehtiyojlarning chegarasi yo'q. Lekin o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqsh kabi bir umr kishiga hamroh bo'ladi. Ilm ortidan dunyoning barcha narsasiga ega bo'lish mumkin. **Abdibek Sheroziy**ning shunday gapi bor: "Yaxshi tahsil ko'rgan va ilm nuri bilan xulqini yaxshilagan ayol har yerda izzat topadi. Ilm - ayol uchun ziynat".

Tengdoshim, balki siz o'zingiz qiziqmayotgan sohada bo'lsa ham oliy ma'lumot olishga kirishmoqchidirsiz. Balki, shu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishingizga ko'zingiz yetmayotgandir. U holda otangiz mashina olgani yaxshi. Oiladan uzoqda musofirlik va talabalik yuki bilan birga, ota-ona mehnatini unutmang!

“

OTA UCHUN BIR YILLIK TO'LOVNI AMALLAB TO'LASH QANCHALIK QIYIN. U YILLAB TO'LAYOTGAN PULLARIGA YANGI MASHINA OLISHI MUMKIN. LEKIN U MASHINANI EMAS, FARZANDINI O'YLAYDI.

Rag'bat

“TALABAGA MADAD”

LOYIHA DOIRASIDA TALABALARNING KONTRAKT PULLARI TO'LAB BERILMOQDA

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yoshlar daftari" yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlovchi samarali tizimga aylandi. Hozirgi kunda mazkur tizimda yoshlarimizga 20 dan ortiq imkoniyatlar mavjud. Harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarga safarbarlik chaqiruvini rezervi xarajatlarini qoplab berish, haydovchilik guvohnomasi, zamonaviy kasblar, chet tillarni o'rganish istagidagilar uchun berilayotgan yordamlar shular jumlasidan.

Bundan tashqari, jamiyatning e'tiborga muhtoj qatlami - talabalariga berilayotgan imkoniyatlar ham talaygina. "Talabaga madad" loyihasi bunga yaqqol misol. Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi loyiha doirasida poytaxtdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida kontrakt asosida ta'lim olayotgan 200 nafar talabalar to'lov-kontrakt summasing bir qismini qoplash uchun 1 milliard 549 million 246 so'm ajratdi.

- To'lov-kontraktning bir qismini qoplash uchun menga 8 million so'mlik sertifikat topshirildi. - **deydi Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti talabasi Ozoda Ozodova.** - Bundan juda xursandman. Chunki bu oilamga, ota-onamga juda katta yordam bo'ldi. Kelajakda mamlakatimiz ertasi uchun o'z hissasini qo'shadigan yoshlar safida bo'laman.

"Talabaga madad" kelajakka madad bo'ldi. Ana shunday loyihalarda yoshlarga keng imkoniyat yaratilishida mahalladagi yoshlar yetakchisining ham o'ri katta. Chunki mahallada yordamga muhtoj, iqtidorli, nogironligi bo'lgan yoshlar balansini aynan ular yaratadi va har bir yoshning o'z qiziqishiga qarab yor-



dam ko'rsatadi. Shuning uchun ham tadbirda eng faol yoshlar yetakchilari taqdirlandi.

Xabaringiz bo'lsa, o'z hamkasblariga namuna bo'lgan, mahallalarda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish, vaqtini mazmunli tashkil etishda alohida tashabbus ko'rsatgan yoshlar yetakchilarining Top-100 reytingi tashkil etilishi ko'zda tutilgan edi. Bu reytingda Toshkent shahridan 7 nafar yoshlar yetakchisi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdoridagi pulni sertifikatga ega bo'ldi.

- Mahallamda 100 nafardan ortiq yoshlar uchun bepul IT kurslarini tashkil etib, ularga bilganlarimni o'rgatib kelyapman. Bundan tashqari, yoshlar xorijiy tili o'rganishi uchun bepul ingliz tili kurslarimiz ham mavjud. Bugun qilgan mehnatlarimiz yuqori baholani, bizga 5 million 520 ming so'mlik sertifikat topshirildi. Bu rag'bat yanada oldinga intilishimizga undadi, - **deydi Toshkent shahridagi "O'rikzor" mahallasi yoshlar yetakchisi Javohiddin Hasanov.**

Sardor SA'DULLAYEV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



ANOR FESTIVALI

Sherobod tumanida "O'zbekiston anorchilar kuni" respublika festivali bo'lib o'tdi.



Yevropa Ittifoqi komissiyasi, Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, vazirlik huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi, Surxondaryo viloyati hokimligi, O'zbekiston Anorchilar assotsiatsiyasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan festivalda mamlakatimiz anor yetishtiruvchilari va soha mutaxassislari, Turkiya, Ozarbayjon, Janubiy Koreya, Afg'oniston, Ukraina, Tadjikiston vakillari ishtirok etdi.



Kelgusi yil bahorda vohada yana 3 ming 114 gektar maydonda yangi anor bog'lari barpo etiladi.

O'ZA
Foto: **Jonibek QO'ZIMURODOV**



Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimizda 16 ming gektar anorzor mavjud. Uning 8 ming 652 gektari Surxondaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Vohadagi anorzorlarning 3 ming 787 gektari hosilli, 4 ming 865 gektari yosh bog'lardir. Mavjud anor bog'larining 7 ming 558 gektari fermer xo'jaliklariga, 1 ming 94 gektari dehqon xo'jaliklari va aholi tomorasiga tegishli. O'tgan yili qariyb 25 ming tonna meva yig'ib olingan. Hosilning 4 ming 519 tonnasi yoki 2 million 171 ming dollarlik anor dunyoning o'nga yaqin davlatiga eksport qilingan.

Joriy yilda viloyatda 43 ming 367 tonna, Sherobod tumanida 27 ming 528 tonna anor yig'ib olinib, "mevalar sultoni"ning 13 ming tonnasi chet elga eksport qilinadi. Bu mahsulotning 8 ming tonnasi Sherobod tumanidan xorijlik buyurtmachilarga jo'natiladi.



"KITOB KARVONI" JANUBDA

Yurtimiz bo'ylab "Kitob karvoni" yo'lga chiqqan. Karvonning navbatdagi manzili Surxondaryo viloyati bo'ldi.

Loyiha doirasida viloyatdagi 6 ta oliy ta'lim muassasasining 14 ta talabalar turar joyiga 100 donadan, jami 1000 dona kitob Yoshlar ishlari agentligi direktori tomonidan sovg'a qilindi.

Shu jumladan, Termiz davlat universitetiga 600 dona, Termiz davlat pedagogika institutiga 100 dona, Termiz muhandislik-texnologiya institutiga 100 dona, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialiga 200 dona, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutiga 200 dona, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga 200 dona kitob topshirilgan.



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi - 2 bosma taboa. Korxonaning manzili: Buyurtma ko'chasi 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-1055, Adadi - 10526. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

